




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI  
XORAZM VILOYATI STATISTIKA  
BOSHQARMASI

XORAZM VILOYATIDAGI  
KORXONA VA TASHKILOTLAR  
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA  
MA'LUMOT



2025- yil 1- fevral holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi



## KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI


So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va buniyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2025- yil 1- fevral holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 24 215 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 20 846 ta). Shuningdek, ushbu davrga 38 725 ta korxona ro‘yxatdan o‘tib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 109,7 foizni tashkil etdi.

### **Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiylumotlar**

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda)*






**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar**

( 2025- yil yanvar oyida )

2025- yil yanvar oyida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 608 tani tashkil etdi.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Jumladan: Qo'shko'pir tumanida (53 taga), Yangiariq (23 taga), Yangibozor (18 taga) va Urganch tumanlarida (16 taga) o'sish mavjud. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 135 taga, savdoda – 50 taga, qishloq va o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 38 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.




(2025- yil 1- fevral holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2025- yil 1- fevral holatiga 24 215 tani tashkil etdi, ulardan 20 975 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 31,9 foiz, sanoat – 14,1 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 11,2 foiz, qurilish – 6,0 foiz. Tumanlar kesimida esa eng ko'pi Urganch shahrida – 19,9 foiz, Urganch – 11,2 foiz, Xonqa – 8,0 foiz, Qo'shko'pir – 7,3 foiz va Xiva shahrida – 7,2 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2025- yil yanvar oyida)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2025- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 476 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 472 ta;
- yirik korxonalar 4 tani tashkil etdi.

#### Yillar kesimida soni

(birlikda)

**476**

**2025**

**2024**

**383**

**443**

**2023**

**2022**

**289**

**417**

**2021**

#### Hududlar kesimida soni

(birlikda)

**Urganch sh.**

**84**

**Qo‘shko‘pir**

**58**

**Curlan**

**54**

**Urganch**

**40**

**Bog‘ot**

**39**

**Yangiariq**

**38**

**Xiva sh.**

**32**

**Xiva**

**28**

**Yangibozor**

**27**

**Hazorasp**

**27**

**Shovot**

**24**

**Xonqa**

**19**

**Tuproqqal'a**

**6**

#### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)

**8**

Sog‘liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmatlar  
ko‘rsatish

**12**

Axborot va  
aloqa

**92**

**59**

**Boshqa  
turlar**

Qishloq, o‘rmon  
va baliqchilik  
xo‘jaligi

**58**

**Sanoat**



**35**

Yashash va  
ovqatlanish bo‘yicha  
xizmatlar

**10**

**10**




Tashish  
va saqlash

**26**

**Qurilish**

**176**

**Savdo**




(2025- yil 1- fevral holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025- yil 1- fevral holatiga 20 975 tani tashkil etdi, ulardan 20 846 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 36,8 foiz, sanoat – 16,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 12,8 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 7,3 foiz, qurilish – 6,8 foiz, tashish va saqlash – 4,4 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,5 foiz, axborot va aloqa – 1,7 foiz, boshqa turlar – 11,4 foiz.


**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni  
(birlikda)**




(2025- yil yanvar oyida)


Viloyat iqtisodiyoti “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2025- yil yanvar oyida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2024- yilning mos davriga nisbatan 125 tadan 176 taga (o‘sish 51 taga), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 54 tadan 92 taga (o‘sish 38 taga) ko‘paydi.


### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)




### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2025- yil 1- fevral holatiga)

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Urganch shahrida (19,6 foiz), Urganch (11,6 foiz), Xonqa (8,1 foiz) va Qo'shko'pir (7,2 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 55,5 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligidagi faoliyat  
ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar  
(2025- yil 1- fevral holatiga)**

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar—qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi. Tumanlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko‘p qismi Gurlan (16,3 foiz), Urganch (11,3 foiz) va Xonqa (10,6 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda.

**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**

Gurlan	440
Urganch	305
Xonqa	287
Qo‘shko‘pir	264
Bog‘ot	250
Yangiariq	245
Xiva	221
Yangibozor	176
Shovot	171
Tuproqqal‘a	112
Hazorasp	92
Urganch sh.	72
Xiva sh.	65

**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**




# Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2025- yil 1-fevral holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini jami korxona va tashkilotlarning 14,1 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 97,4 foizini ishlab chiqarish sanoati, 1,4 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish, 0,6 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, 0,6 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash tashkil etgan.

**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



**Ishlab chiqarish sanoati**



**Suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**



**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash**




*(2025- yil 1- fevral holatiga)*


Viloyatda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 58,0 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishidagi korxonalar soni 21,5 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishidagi korxonalar soni esa 20,5 foiz ulushni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



(2025- yil 1- fevral holatiga)

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 7 705 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.


Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 63,8 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 24,5 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishida 11,7 foiz ulushni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**

Urganch sh.	1 518
Urganch	951
Bog‘ot	594
Yangiariq	584
Xiva sh.	572
Hazorasp	555
Xonqa	543
Qo‘siko‘pir	509
Shovot	508
Xiva	469
Gurlan	387
Yangibozor	348
Tuproqql‘a	185

**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



4 928

Avtomobil va mototsikllar  
savdosidan tashqari chakana savdo

1 890

Avtomobil va mototsikllar  
savdosidan tashqari ulgurji savdo

905

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji  
va chakana savdosi va ularni ta’mirlash

(2025- yil 1- fevral holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2025- yil 1- fevral holatiga 1 537 taga yetib, ularning 1 522 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkaziah bo'yicha xizmatlat yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 85,5 foiz ulushini tashkil etdi.

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2025- yil 1- fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 14,5 foiz ulushini tashkil etdi.

**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**

Urganch sh.	379
Xiva sh.	272
Urganch	151
Shovot	89
Yangiariq	87
Xonqa	86
Gurlan	78
Qo'shko'pir	73
Bog'ot	72
Xiva	71
Hazorasp	67
Yangibozor	63
Tuproqqal'a	49

**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**



*(2025- yil 1- fevral holatiga)*

2025- yil 1- fevral holatiga axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar:

-kompyuter dasturlash va aloqa bo‘limida korxona va tashkilotlar soni axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiylar sonining 61,6 foizini;


-axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo‘limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 32,9 foizini;

-ko‘rsatuvalar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo‘nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 5,5 foizni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**

Urganch sh.	125
Xonqa	40
Xiva sh.	36
Urganch	35
Yangiariq	30
Qo‘shko‘pir	23
Xiva	21
Bog‘ot	17
Shovot	17
Hazorasp	14
Gurlan	11
Yangibozor	8
Tuproqqal‘a	6

**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



	Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar
	Noshirlik faoliyati

130      106

Aloqa



	Noshirlik faoliyati
	Kino-videofilmlar, television dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish

69      57

Axborot xizmati ko‘rsatish sohasidagi faoliyat



	Kino-videofilmlar, television dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish
	Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuv va radioeshittirish

17      4

Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuv va radioeshittirish



(2025-yil 1-fevral holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 523 ta yoki 72,1 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.


Yo'naliishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

- ushbu sohadagi korxonalar sonining 95,7 foizi sog'liqni saqlash yo'naliishidagi to'g'ri keladi;
- yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'naliishidagi korxonalar soni 2,6 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'naliishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,7 foizini tashkil etdi.

#### Hududlar kesimida soni (birlikda)

Urganch sh.	211
Urganch	64
Xonqa	60
Xiva sh.	50
Gurlan	55
Hazorasp	51
Qo'shko'pir	48
Xiva	40
Shovot	40
Yangiariq	33
Bog'ot	32
Yangibozor	27
Tuproqqal'a	14

#### Yillar kesimida soni (birlikda)



# Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

(2025- yil 1- fevral holatiga)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Urganch sh.	196
Hazorasp	188
Xonqa	119
Urganch	104
Bog‘ot	54
Shovot	48
Gurlan	45
Xiva sh.	42
Xiva	42
Qo‘shko‘pir	40
Yangiariq	28
Yangibozor	15
Tuproqqal‘a	14

2025- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining 3,9 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo‘nalishlari bo‘yicha tahlili shuni ko‘rsatadi:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 78,5 foizni tashkil etdi;
- ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalisining korxonalarini soni 19,7 foizni;
- pochta va kuryerlik yo‘nalishidagi korxonalar soni 1,3 foizni;
- havo va suv transporti yo‘nalishidagi korxonalar soni 0,5 foizni tashkil etgan.



**Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy  
shakli bo'yicha umumiy ma'lumot**  
(2025- yil 1- fevral holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarini tahlil qilish va prognozlashtirish.

**Faoliyat ko'rsatayotgan  
tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)**

**Tadbirkorlik subyektlarining  
jamiga nisbatan ulushi (foizda)**

**13 246**

**mas'uliyati cheklangan  
jamiyat**

**63,2**

**3 797**

**xususiy korxonalar**

**18,1**

**3 775**

**oilaviy korxonalar**

**18,0**

**30**

**aksiyadorlik jamiyat**

**0,1**

**127**

**boshqalar**


**0,6**

(2025- yil yanvar oyida)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zлari qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

### Yillar kesimida soni

(birlikda)




### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)



(2025- yil 1- fevral holatiga)

Amaldagi 20 975 ta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2025- yil 1- fevral holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 13 246 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar viloyatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 34,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 15,7 foiz, sanoat – 14,2 foiz, qurilish – 8,7 foiz.


**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni  
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni (birlikda)**




(2025- yil yanvar oyida)

Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.


### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




### Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2025- yil 1- fevral holatiga)

2025- yil 1- fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan: Urganch shahrida – 996 ta, Xonqa – 469 ta va Shovot tumanida – 376 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan: savdo sohasida – 1 560 ta, sanoatda – 678 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 262 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 271 ta.


## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2025- yil yanvar oyida)

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiyl mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektiidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

### Yillar kesimida soni

(birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)

Gurlan tumani

Yangibozor tumani

Urganch tumani

Shovot tumani

2

Qo‘shko‘pir tumani

3

Xiva shahar

1

Xiva tumani  
1

Yangiariq tumani  
1

Bog‘ot tumani  
3

Hazorasp tumani  
1

Xonqa tumani

2

1

Urganch shahri

10

Tuproqqal‘a tumani  
1


1

(2025- yil 1- fevral holatiga)


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2025- yil 1- fevral holatiga ko'ra 3 775 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 41,0 foiz, sanoat – 21,6 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 18,3 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 7,3 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Urganch tumani – 13,8 foiz, Urganch – 13,6 foiz va Xiva shahrida – 11,7 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari to'g'risida ma'lumotlar

(2025- yil 1- fevral holatiga)


Viloyatda mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri mevasabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'naliшlardan biriga aylandi.

Tumanlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Shovot (12,9 foiz), Xonqa (11,5 foiz) va Yangibozor (10,6 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



**3 801** Dehqonchilik va  
chorvachilik, ovchilik va bu  
sohalarda xizmat ko'rsatish




(2025-yil 1-fevral holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'naliishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan 138 ta korxonalaridan 55 tasi qo'shma korxonalar va 83 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.


### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)




Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 4,5 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 138 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,1 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Xorazm viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Turkmaniston (ulushi 18,8 foiz), Turkiya (ulushi 18,1 foiz) va Xitoy (ulushi 10,9 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

(2025- yil 1- fevral holatiga, birlikda)



Viloyatimizda to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta’minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko‘payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Urganch shahrida 34,1 foiz, tumanlar orasida esa Shovot – 10,1 foiz, Urganch – 8,7 foiz va Xiva – 6,5 foiz to‘g‘ri keladi.

( 2025- yil 1- fevral holatiga ,birlikda )



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

( 2025- yil 1- fevral holatiga, birlikda )



**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan axborot-ma’lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016- yil 24- avgustdagি** “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirdorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida **2025- yil 1- fevral** holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, Soliq qo‘mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik shaxslar haqidagi ma’lumotlar bazalari o‘zaro bixillashtirildi.*

O‘ZBEKİSTON RESPUBLİKASI PREZİDENTİ HUZURIDAGI  
STATISTİKA AGENTLİĞİ

Mobil versiyası

Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumot

STIR kodini kiritish

Aga xushnazar bo‘la, ro’yven bo‘ling  
Zikr qilish

Rasmiagi kodini kiritish

Ochish

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qon’isi  
2023 yil



## Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O‘zbekiston  
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining  
[www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida,  
so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib,  
axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.



Statistik registrlarni yuritish bo‘limi  
Tel.: (62)22-4-65-11